



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA START-UPLARNING ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Ilmiy rahbar: Bekmuradova Feruza

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'qituvchisi, PhD

bekmurodovaferuza@gmail.com

Fazliddinova Sabohat Ilxomovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

Telefon nomer: +998953220508

sabohat0812@gmail.com

Shuhratillayev Yusuf Oybekovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

Telefon nomer: +998937930705

shuhratillayevyusuf@gmail.com

Anotatsiya: Bugungi kunda ekologik muhitni saqlash, energiya isrof qilinishini oldini olish hamda barqaror rivojlanishga erishish maqsadida ko'plab mamlakatlar yashil iqtisodiyotga o'tish g'oyasini ilgari surmoqda. Startup loyihalari orqali esa qayta tiklanuvchi energiyadan samarali foylanishga, ekologik texnologiyalarni tatbiq qilishga erishish mumkin va bu nafaqat tabiatga balki iqtisodiyotning o'sishiga olib kelishi mumkin. O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tishga va shunga oid sohalarni rivojlantirishga doir ko'plab ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqola O'zbekiston tajribasida barqaror rivojlanishga erishish uchun startaplarning ahamiyati, ularga doir amalga oshirilgan ishlar



hamda shu sohada duch kelinayotgan muammolarni va imkoniyatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, bu tizimning rivojlanishi uchun taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *yashil iqtisodiyot, startaplar, innovatsiya, qayta tiklanuvchi energiya, O'zbekiston, ekologik texnologiyalar, barqaror rivojlanish*

Metodologiya: Ushbu maqolani yozish davomida startap tadbirkorlari, ekspertlari va hukumat vakillari bilan o'tkazilgan intervyular kuzatilib tahlil qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar tahlil qilindi. Bir nechta ekologik startap loyihalariga bog'liq maqolalar ko'zdan kechirilib, foydali ma'lumotlar olindi. Shu bilan birgalikda ma'lumotlarni tahlil qilishda taqqoslash, kuzatuv va ikkilamchi tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Kirish: Ma'lumki, so'nggi yillarda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, yerosti resurslarning kamayishi global darajadagi muammoga aylanmoqda hamda mamlakatlar bu masalaga jiddiy yondashib ko'plab muzokaralar olib bormoqda. Dastlab bu muammoning kelib chiqish sabablariga e'tibor berilsa, XX asrda aholi soni 1,6 mlrd kishini tashkil qilgan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib ushbu ko'rsatkich 6 mlrd kishidan oshdi, 2017 yilda esa 7,6 mlrd kishiga yetdi. Shu bilan birga fan-texnika sohasida erishilgan yutuqlar natijasida iste'mol hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu omillar ekologiyaning kuchli zararlanishiga hissa qo'shdi. Shuningdek, O'zbekistonda ham energiyaga bo'lgan talabning yuqori suratda oshayotganligi sababli muqobil energiyadan keng foydalanishga jadal harakat qilinmoqda. Startap loyihalari orqali quyosh, shamol energiyalaridan ko'proq foydalanishga imkon yaratishi mumkin. Hozirda davlatning iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yashil texnologiyalar muhim omil sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qarorlar imzolanmoqda. Masalan, 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan ekologik xavfsizlikni ta'minlash dasturi"da yashil



texnologiyalardan foydalanish hamda ulardan iqtisodiyotda keng foydalanish haqida ta'kidlangan. Bundan tashqari, bu dastur chiqindilarni qayta ishlash, ekologik farovonlikni ta'minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha strategiyalarni o'z ichiga olgan.

Tahlil va natijalar

Ma'lumki, yashil iqtisodiyot energiya samaradorligini oshirishga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Dunyo shu kabi jiddiy ekologik muammolarga duch kelayotgan ekan, yashil iqtisod, yashil siyosat, yashil investitsiya, yashil texnologiya, yashil startaplar kabi atamalar dolzarb darajaga chiqdi. O'zbekiston 2015-yilning sentyabr oyida BMT sammitida e'lon qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarining milliy bajarilish bo'yicha shartlarini qabul qildi va 2030-yilgacha barqaror rivojlanish sohasida 16 asosiy vazifalar tasdiqlandi. Ushbu shartnomada ham yashil iqtisodiyotga alohida urg'u berilgan va bir nechta vazifalar shu mavzuga oid hisoblanadi.

Energiya sohasiga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, OECDning tahminlariga ko'ra 2050-yilda dunyo bo'yicha talab 80% ga ortadi. Issiqxona gazlari 50%ga ortishi va natijada havo ifloslanishi yuqori darajaga chiqishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari, shaharlarning ifloslanishi 2050-yilga kelib eng katta muammoga aylanishi kutilmoqda. Ma'lumot uchun, havo ifloslanishi sababli yuzaga keladigan bevaqt o'limlar soni 3,6 millionga yetdi va bularning katta ulushi Xitoy va Hindistonga tegishli hisoblanadi. Shuningdek, tabiiy o'rmonlar soni 13%gacha qisqarishi kutilmoqda. Ushbu holatlar shuni anglatadiki dunyo bu muammolarga jiddiy yondashmasa kelajakda bu xavf to'g'irlab bo'lmas darajaga yetishi mumkin.

Tadbirkorlar iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga innovatsion uslubda yechim topishlari startaplar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. "Lean Startup" metodologiyasi asoschisi Erik Ris startapni chuqur noaniqlik sharoitida yangi mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan insoniy institut sifatida



ta'riflaydi. Yashil startaplar - yashil sanoat doirasidagi ekologik muammolarni kamaytirishga asoslangan va innovatsion tashabbuslari orqali iste'molchilar e'tiborini jalb qiladigan tashkilot. Bunday tashkilotlar o'z faoliyatining har jihatida tabiatga zarar yetkazmaslikka intiladi. Bunday korxonalarning muvaffaqiyati uchun, albatta, yaxshi g'oyaning o'zi yetarli emas, balki yetarli miqdorda moliyaviy mablag' zarur bo'ladi. G'arbiy va Sharqiy Osiyoda barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiyotda yashil startaplar ajralmas qism sifatida e'tirof qilinadi. Bundan tashqari, Yevropa davlatlarida ham ko'plab startaplar faoliyat yuritishadi. Masalan, Germaniyaning Berlin hamda Myunxen shaharlarida taxminan 70000 startaplar faoliyat yuritmoqda. Hozirgi axborot texnologiyalar davrida sun'iy intellekt, nanotexnologiyalar kabi ilg'or texnologiyalar orqali foydali qazilmalarni qayta tiklash, chiqindilarni qayta ishlash va foydalanishda katta yutuqlarga erishish mumkin.

O'zbekistondagi startaplar va ularning faoliyati, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot uchun startaplar qanday rol o'ynaydi?

Startup- bozorga yangi mahsulot yoki xizmatni olib chiqishga qaratilgan, innovatsion g'oyaga asoslangan loyiha. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda startaplarning ulushiga ko'ra, bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun, quyosh energiyasi bo'yicha bir qancha loyihalar, masalan, quyosh parklari qurish amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hukumat xalqaro kompaniyalar bilan quvvati yuzlab megavattgacha bo'lgan quyosh elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnomalar imzoladi. Mamlakatimizda qayta tiklanadigan energiyaga investitsiyalarni qo'lab-quvvatlash maqsadida bir qancha imtiyozlar joriy qilindi, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari uchun tariflar va soliqlar taqdim etiladi. Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya loyihalar va texnologiyalar transferini rag'batlantirish uchun xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi.



O'zbekistonda Ecoplast Asia, GreenBox, SolarPower.uz, Smart Irrigation System, GreenTech Lab Uzbekistan kabi startap loyihalari mavjud bo'lib, 2024-2025-yillardagi tashabbuslarga asoslangan holda faoliyat yuritadi. Ecoplast Asia plastik va politelin chiqindilarni yig'ib, qayta ishlashga asoslangan startap bo'lib, 2024-yilda xalqaro grant yutib olgan hisoblanadi. GreenTech Lab Uzbekistan yashil iqtisodiyotga oid innovatsion loyihalarni topish, qo'llab-quvvatlash va moliyaviy ta'minlashga asoslangan bo'lib, 50 dan ortiq yashil startaplarni qabul qilgan. O'zbekiston ekologik innovatsiyalar uchun keng hudud, qulay geosiyosiy joylashuv kabi noyob imkoniyatlar va shart-sharoitlarga ega va yashil startaplar bunda sezilarli darajada muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston sharoitida yashil start-up larni yaratishda, ularni amalda qo'llashda hamda investitsiyalarni jalb qilishda bir nechta muammolarga duch kelinmoqda. Quyidagi muammolar satrt-uplarga ta'sir qilib, ularning rivojlanish salohiyatini kamaytirishi mumkun.

Moliyaviy resuslarning yetishmasligi: Yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi startaplarni amaliyotga tadbqiq qilishdagi eng katta muommolarda biri bu moliyaviy resuslarning yetishmovchiligi bo'lib kelmoqda. Yosh tadbirkorlar ekologik loyihalarini amalga oshirish uchun boshlang'ich kapitalni topishda muommolarga duch kelishmoqda. Chunki kichik ekologik loyihalarga qaratilgan investitsiyalar va grantlar cheklangan, bank kredit foiz stavkalari esa yuqori. Natjada ushbu turdagi loyihalar amalda joriy qilinmayapti. Misol uchun, O'zbekiston 2024-yil 21-oktabrda \$1.3 milliardlik chiqindilarni energiyaga aylantirish to'g'risdagi loyihani amamlga oshirish bo'yicha e'lon bergan. Biroq bu kabi yirik investitsiyalar davlat va xalqaro tashkilotlar o'rtasida amalga oshiriladi va natijada kichik start-up lar chetda qolib ketadi.

Texnologik infratuzilmaning past darajasi: O'zbekistonda yashil startap loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli texnologik infratuzilmalar va tizimlar mavjud emas. Misol uchun, chiqndilarni energiyaga aylantirish bo'yicha ko'plab



startap loyihalar mavjud, biroq yetarli texnologiyalar mavjud emas. Shu boisdan ko'plab foydali loyihalar amalga oshirilmasdan qolib ketmoqda. Germaniya yashil iqtisodiyotiga nazar tashlab, uni O'zbekiston bilan solishtiradigan bo'lsak, mamlakatda ekologik loyihalar uchun yetarlicha texnologiyalar mavjudligi uning dunyo bo'yicha yashil iqtisodiyot sohasida yetakchliging asosiy sabablaridan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Malakali kadrlar va tajrba yetishmovchiligi: Ekologik startaplarni yaratishda yoshlarimizda juda ham ko'plab kreativ g'oyalar mavjud, biroq, ularni amalda qo'llashda texnik, iqtisodiy va huquqiy bilimlar yetishmaydi. Shu bilan birga tajribali mentorlar va professional konsalting xizmatlaring yetishmovchiligi yoshlarimizning ushbu sohaga oid bilimlarni olishiga to'sqinlik qilmoqda. Natijada, ekologik startaplarning rivojlanishi va amalda qo'llanilshi kechikmoqda.

Ushbu muammolarni hal qilish start-uplarning rivojlanish tendensiyasiga, shuningdek ularning son va sifat jihatdan o'sishiga ham ta'sir qilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan muammolarga yechim sifatida quyidagi yo'llarni ko'rsatishimiz mumkin.

1. Hukumat qo'llab quvvatlashi: Hukumat tomonidan ekologik loyihalar uchun qo'shimcha moliyaviy yordam berish dasturlarini joriy etish va soliq bo'yicha imkoniyatlarni oshrish kabi islohotlar yuqoridagi muommolarni hal qilishi mumkin. Bundan tashqari xusuiy sektorlar bilan hamkorlikda kichik startaplarni rivojlantirish samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Ya'ni xususiy sektorlar e'tiborini kichik startaplarga qaratish va investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish kerak.

2. Ta'lim va nnovatsiyalar: Ta'lim tizimida startaplarni qo'llab quvvatlovchi dasturlar va kurslarni ko'paytirish lozim. Maktab va universtitet darsliklari qatoriga startap loyihalar yaratish bo'yicha tenik, huquqiy va iqtisodiy bilimlar beruvchi o'quv mashg'lotlarini qo'shish kerak. Yoshlarni ushbu sohadagi bilimlarini rivojlantirish kerak. Bundan tashqari, turli xildagi inkubatsiya markazlarini



ko'paytirib, loyihalarni amalda tadbqiq qilinishi uchun barcha yordamlar ko'rsatilishi kerak.

3. Ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirish kerak: Startap tadbirkorlarini, investorlarni va mutaxassislarni bir joyga to'playdigan tarmoq platformalarini yaratish orqali tajriba almashishni rag'batlantirish kerak.

Yuqorida ko'rib chiqilgan startaplar misolida ko'rishimiz mumkunki, atrof-muhitni asrashda innavatsion loyihalar muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, atrof muhit muommolarini bartaraf qilishga hissamizni qo'shish maqsadida biz ham ekologik startap ustida ishlamoqdamiz. Bizning startap loyihamiz Eco-box deb nomlanadi. Barchaga ma'lumki, hozirgi kundagi eng katta ekologik muommolardan biri bu- chiqindilar bo'lib kelmoqda. Shu sababdan, ushbu muommoni hal qilish uchun Eco-box loyihamizga qo'l urdik. Loyihaning boshqa ekologik loyihalardan farqi shundaki, biz chiqindilarni ko'chada emas balki o'z xonadonimizdan saralab so'ngra chiqindi yuk mashinalariga topshiramiz. Bu esa chiqindilarni samarali saralashga katta yordam beradi.

Loyiha maqsadi: Bu loyihaning asosiy maqsadi atrof-muhitga zarar beruvchi chiqindilarni saralash va ularni foydali maqsadda foydalanishga yo'naltirish. Bundan tashqari, ushbu loyiha orqali jamiyatga chiqindilarni saralash madaniyatini o'rgatish maqsad qilingan. Loyiha orqali ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish ham asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Loyiha qanday ishlaydi? Loyihaning o'ziga xos xususiyatlarida biri bu uning yopiq sikl shaklida ishlashidir. Ya'ni Eco-box onlayn platforma yaratiladi va ushbu platforma orqali 3turdagi plastik Eco-box qutilar sotiladi. Xar bir xonadon alohida o'z uylariga qutilar sotib olishadi va chiqindilar xonadonlarda saralanadi. Saralangan chiqindilar yuk mashinalar orqali yig'ib olinadi va qayta ishlash shahobchalariga yetkaziladi. Plastik chiqindilardan qayta yangi Eco-box qutilari ishlab chiqiladi va sotuvga chiqadi. Oziq-ovqat chiqindilardan esa qishloq xo'jaligi uchun foydali va hamyonbop turli xildagi o'g'itlar ishlab chiqiladi. Ushbu o'g'itlar



ham sotish uchun platformaga joylashtiriladi va mijozlarga yetkazib beriladi. Natijada chiqindilardan to'g'ri foydalaniladi va yangi mahsulotlar ishlab chiqiladi.

Xulosa: Yangi O'zbekiston sharoitida ekologik loyihalarni rivojlantirish yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng samarali yo'nalishdir. Yashil iqtisodiyot sohasida startaplar orqali innovatsiyalarni joriy qilish, samaradorlikni orttirishi va raqobatbardoshlikni kuchaytirishi mumkin. Startap loyihalarni amalda qo'llash uchun esa davlat va xususiy sektor o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlik mavjud bo'lishi zarur. Bu jarayonda grantlar, imyiyozli kreditlar, moliyaviy qo'llab-quvvatlash kabi infrastruktura juda katta rol o'ynaydi. Shu sababdan, O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tishda muhim qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Ecoplast Asia, GreenBox, GreenTech Lab Uzbekistan kabi startaplar hozirgi kunda O'zbekiston yashil iqtisodiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shmoqda. Bu esa O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tishida startaplarning o'рни muhim va istiqbolli ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, Q. X. (2024). *Green economy development trends in Uzbekistan*. Accounting and Finance Analysis. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/551/576>
2. Zenodo. (2024, May 1). *Green economy: Implementation challenges and development prospects*. <https://zenodo.org/records/14912968>
3. UZA. (2024, April 23). O'zbekistonda "yashil iqtisodiyot" – strategik maqsadlar va amaliy qadamlar. *O'zbekiston Milliy axborot agentligi*. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-yashil-iqtisodiyot-strategik-maqsadlar-va-amaliy-qadamlar_689427
4. Sobirov, A., & Rasulova, M. (2023). Development of the green economy in Uzbekistan: Issues and solutions. *International Sciences Journal*, 1(1), 64–59. <https://internationalsciences.org/index.php/is/article/view/64/59>



5. Yusupova, N. N. (2023). O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishda davlat siyosatining o‘rni. *CyberLeninka*.
<https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekistonda-yashil-iqtisodiyotni-shakllantirish-va-rivojlantirishda>
6. Salimova, M. B. (2023). The role of state policy in forming a green economy in Uzbekistan. *IJEPR Online*, 4(2), 570–595.
<https://ijeponline.lingcure.org/index.php/journal/article/download/570/529/595>
7. Karimov, I. T., & Rakhimova, S. D. (2024). Ecological and economic mechanisms of sustainable development. *Zamonaviy Ilmiy Tadqiqotlar*, 2(1), 24314–39937. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/38093/24314/39937>
8. United Nations Development Programme (UNDP). (2021). Green Recovery and the Transition to Green Economy in Uzbekistan.
https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/Uzb_GRG_E_PolicyBrief_ExSum_v1_20210303_DESIGNED.pdf
9. 2. World Bank. (2022). Towards a Greener Economy in Uzbekistan.
<https://documents1.worldbank.org/curated/en/099920009092215042/pdf/P17852214a422b0d7193c41dac9a52927a4.pdf>
10. Central Asia-Caucasus Analyst. (2023). Uzbekistan as a Green Energy Regional Power: Prospects and Caveats.
<https://www.cacianalyst.org/publications/analytical-articles/item/13838-uzbekistan-as-a-green-energy-regional-power-prospects-and-caveats.html>